NAVOIY VILOYATI G‘OZG‘ON SHAHAR HOKIMINING
Q A R O R I

G‘ozg‘on shahar, Amir Temur k 1.

2021 - yil 29 - oktabr 41-5-210-Q/21 G'ozg'on shahar xokimligi

“Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2022 yilda ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida “gi O‘RQ-642-sonli Qonunining 39-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6,25-moddalari, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 18-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”dagi PQ-3001-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarning kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi 965-sonli qaroriga hamda unga ilova qilingan nizomga asosan 2022 yil uchun ish o‘rinlari band qilib qo‘yish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida“gi O‘RQ-642-sonli Qonuning 39 – moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun shahardagi yigirma nafardan ortiq ishlovchi xodimlari mavjud korxona, tashkilot va muassasalarda

xodimlarining ro‘yxat bo‘yicha umumiy sonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun 17 ta ish o‘rni zaxiraga qo‘yish, shu jumladan:

-o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 8,5 foiz - 2 kishi;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 34,0 foiz - 5 kishi;

-safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar shaxslar uchun 1,7 foiz 1 kishi;

- nogironlar uchun 8,5 foiz – 2 kishi;

- pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun uchun 1,7 foiz - 1 kishi;

-jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 1,7 foiz - 1 kishi;

- og‘ir turmush sharoitdagi xotin-qizlar 34,0 foiz - 5 kishi

2. Korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan **“**Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan ish o‘rinlarini belgilangan muddat va tartibda yaratilishi (ajratilishini yoki band etib qo‘yilishini) ta’minlash;

ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlash;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2021 yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2022 yilning 10 aprel sanasidan kechikmay ish joylarining qolgan

qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va buyruq nusxalarini shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim etilishini ta’minlasinlar.

3.O‘zbekiston Respublikasining Aholi bandligi to‘g‘risida “gi O‘RQ-642-sonli qonuni 41-moddasiga asosan tuman (shahar) hokimining davlat qo‘shimcha kafolatlarni ta’minlaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini tashkil etishga doir qarorini bajarmaganlik, shuningdek zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlariga mahalliy mehnat organlari tomonidan yuborilgan shaxslarni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etganlik Qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo‘lishi, javobgarlikka tortish zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etish majburiyatidan ozod qilmasligi belgilangan.

4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarinin eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 21 bandiga asosan, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarima to‘laganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmasligi inobatga olinsin.

5.O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomning 2-bandida nazarda tutilgan *(ro‘yxat raqami 3163, 2019 yil 31 may)* subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan ish joylaridan sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash inobatga olinsin.

6. Shahardagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha tuzilgan

ishchi komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Shahar hokimligi devonxona muduri (Sh.Shokirov), bir hafta muddatda mazkur qarorning 1-ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalariga yetkazilishi ta’minlasin.

8. Shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktori v.v.b (Sh.Sharipov)ga ushbu qarorning bajarilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish hamda har chorak yakuni bilan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan shahar hokimligiga ma’lumot taqdim etib borishini ta’minlasin.

9. Shahar Axborot xizmati (B.Amonboev), shahar “Navqiron G’ozg’on” gazetasi (E.Esanov) mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari orqali yoritilishini, mazkur qaror shahar hokimligi veb-saytiga joylashtirilishi hamda davlat hisobiga olinishi uchun shahar adliya bo‘limiga yetkazilishi ta’minlasin.

10. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari O.Raxmatov zimmasiga yuklatilsin.

11.Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

Shahar hokimi **А.Базаров**

Ғозғон шаҳар ҳокимининг
2021 йил 29 октябрдаги
41-5-210-Q/21-сон қарорига
1-илова

T/r	**Korxona, tashkilot, muass asalar nomi**	**Xodimlar-ning ro‘yxat-dagi o‘rtacha soni**	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini eng kam soni	O‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	Muddatli xarbiy xizmatdan bo‘shatilganlar va safarbarlik chaqiruvi zaxirasiga kiritilgan shaxslar	Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Pensiya-oldi yoshdagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar	Og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar (tasdiqlangan ro‘yxat asosida)
1	1 maktab	**86**	4	1	1	0	0	1	0	1
2	2 maktab	**64**	3	0	1	0	1	0	0	1
3	3 maktab	**40**	2	0	1	1	0	0	0	0
4	1 maktabgacha ta’lim tashkiloti	**74**	3	1	1	0	0	0	0	1
5	2 maktabgacha ta’lim tashkiloti	**34**	1	0	0	0	0	0	0	1
6	3 maktabgacha ta’lim tashkiloti	**27**	1	0	1	0	0	0	0	0
7	G‘ozg‘on shahar Tibbiyot birlashmasi	**68**	3	0	0	0	1	0	1	1
Jami		**393**	**17**	**2**	**5**	**1**	**2**	**1**	**1**	**5**